



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 03 | pp. 124-129 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

QURILISH SOHASIDA BOSHQARUVNING VIRTUAL TASHKILIY TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH



Usmanov Ilxom Achilovich,

“Biznesni boshqarish” kafedrası prof.v.b.

Raximova Nilufar Abduazizovna,

“Biznesni boshqarish” kafedrası o‘qituvchisi

Samarqand Davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi menejment nazariyasida alohida o‘rin egallaydi, shuning uchun har qanday tadqiqot, qoida bo‘yicha, tashkilot boshqaruv tizimining ushbu elementiga ham qandaydir ma’noda taalluqli bo‘ladi. Zamonaviy qurilish kompaniyalari rivojlanishining asosiy ilmiy-uslubiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib samarali tashkiliy tuzilmalarning shakli va turini tanlashdan iborat. Qurilishning taraqqiy etishi tashkiliy tuzilmalarning jadal rivojlanishiga olib kelmoqda, shu sababli ularni o‘rganish va istiqbollarini prognozlash dolzarb muammo hisoblanadi. Mazkur maqolada virtual tashkiliy tuzilmalarning mohiyati va turlarini tadqiq qilish natijalari keltirilgan.

Kalitli so‘zlar: qurilish, boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, byurokratik model, virtual model.

Аннотация. Организационные структуры управления занимают особое место в менеджменте, поэтому обычно любое исследование в какой-то мере затрагивает этот элемент системы управления предприятием. Выбор формы и вида эффективной структуры управления является одним из основных научно-методических направлений развития современных строительных компаний. Прогресс строительства приводит к ускоренному развитию организационных структур, поэтому их изучение и прогнозирование считается актуальной проблемой. В данной статье приведены результаты исследования сущности и видов виртуальных организационных структур.

Ключевые слова: строительство, организационная структура управления, бюрократическая модель, виртуальная модель.

Abstract. Organizational management structures occupy a special place in management, therefore, usually any research to some extent touches upon this element of the enterprise management system. The choice of the form and type of an effective management structure is one of the main scientific and methodological directions for the development of modern construction companies. Progress in construction leads to the accelerated development of organizational structures, making their study and forecasting a pressing issue. This article presents the results of a study of the nature and types of virtual organizational structures.

Keywords: construction, organizational management structure, bureaucratic model, virtual model.

Kirish

Bugungi kunda boshqaruv fanida tub o'zgarishlar sodir bo'lishini guvohi bo'lmoqdamiz. Ushbu o'zgarishlarning asosiy sabablariga boshqaruvda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini oshib borishi, boshqaruv mehnatining individuallashuvi hamda ma'lumotlar bilan ishlash va qaror ishlab chiqish texnologiyalarning o'zgarishi kiradi. Mazkur o'zgarishlar qurilish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarda ham keng qamrovli xarakterga ega. Qurilish sohasida davlat boshqaruvi funktsiyalari va vazifalarini takomillashishi, "shaffof qurilish" virtual platformaning loyiha-qurilish jarayonlararini keng qamrab olishi, qurilish kompaniyalarining yiriklashishi va boshqa tendentsiyalar boshqaruvining tashkiliy tuzilmalarini mazmunan o'zgarishiga olib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari ko'plab adabiyotlarda o'rganilgan va tasnif qilingan[1,2,3]. Ushbu o'zgarishlar negizida olimlar tomonidan tashkilotda boshqaruv tizimining muhim elementi bo'lmish tashkiliy tuzilmalarga e'tibor keskin kuchaydi. Bunday izlanishlardan O.Yu.Trilitskaya [4], V.V.Rodionov, S.V.Petuxova [5], A.S.Kugeleva [6], M.A.Ignatov [7], T.B.Terentyevalarning [8] ishlanmalarini misol keltirishimiz mumkin. Tadqiqotlarning asosiy maqsadi – tashkiliy tuzilmalar evolyutsiyasining tub mohiyatini ochib berish va kelajakdagi tuzilmalarning turi va shaklini nazariy asoslab berish. Ishlanmalarining ayrimlarida tashkiliy tuzilmalarning rivojlanishi va tasnifiga diqqat qilingan bo'lsa, boshqalarida tashkiliy tuzilmalarining nazariy-uslubiy muammolariga urg'u berilgan. Masalan O.Yu. Trilitskaya o'z tadqiqotlarida tashkiliy tuzilmalarning byurokratik va organik (adaptiv) turlarini ajratadi, ularda esa elementlarni bog'lab turuvchi aloqalarni uch turi – vertikal, gorizontaal va diagonal aloqalarni keltiradi [4]. Olimlarning boshqalari tashkiliy tuzilmalarni shakllantirishda qattiq va yumshoq aloqalar ishtirok etishini ta'kidlaydi. Tadqiqotlarda tashkiliy tuzilmalarning o'zgaruvchan tashqi muhitda kompaniya strategiyalariga tez moslashish muammosiga asosiy e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini tadqiq qilishda olimlarning ishlanmalarini tanqidiy o'rganish yondashuviga asoslangan hamda mamlakatimizda, hususan Samarqand mintaqasidagi qurilish tashkilotlarida shaxsiy kuzatuvlar va rahbarlarning fikrlarini o'rganish natijalari asos qilib olingan.

Tahlil va natijalar

Bizning fikrimizcha, T.B.Terentyevaning asarida keltirilgan boshqaruv tashkiliy tuzilmalarining tasnifi oxirgi yillarda bajarilgan izlanishlarning batafsil taxlilini o'zida mujassamlashtirgan. Birinchidan, olimaning fikrlari tashkiliy tuzilmalarning davrlar bo'yicha to'rt bosqichga ajratilishi ko'plab olimlarning xulosalariga asoslangan, ikkinchidan, har bir bosqichga mos tashkiliy tuzilma turlariga izoh berilgan [8].

Bugungi kunda mamlakatimiz qurilish sohasidagi jarayonlar va tendentsiyalarga asoslangan holda bizlar ma'lum shartli izohlar bilan ushbu muallifning quyidagi fikrlariga qo'shilish mumkin deb hisoblaymiz, ya'ni qurilishda qo'llaniladigan barcha tashkiliy tuzilmalarni uch turga – qattiq byurokratik, yumshoq byurokratik va qayishqoq virtual modelga qarashli guruhlariga birlashtirish.

Qattiq byurokratik modelga qarashli tuzilmalar: chiziqli, funktsional, shtabli; yumshoq byurokratik modelga qarashli tuzilmalari: loyihaviy, matritsali, divizional, dasturiy-maqсадli; qayishqoq virtual modelga qarashli tuzilmalari: virtual, to'rsimon, biznes-to'rlar, agile-qayishqoq, "firuza"li, adxokratik, xolokratik, fragmentlashgan tuzilmalar [8].

Qurilish sohasida olib borilgan izlanishlar natijasida bizlar tashkiliy tuzilmalar tasnifini to'rt guruhga ajratish zarurligini aniqladik: mexanistik (qattiq byurokratikka mos keladi), adaptiv (yumshoq byurokratikka mos keladi, to'rsimon va virtual (olima taklif qilgan virtual tuzilmalar ikki guruhga ajratildi) tuzilmalari. Har bir turdagi tashkiliy tuzilma qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Ushbu farqlarning asosiy belgilaridan biri – bu ustuvor hisoblangan aloqalar turi va ularning o'zaro nisbati hisoblanadi. Nazariy izlanishlar va shaxsiy tadqiqotlar asosida bizlar qurilish tashkilotlarining boshqaruv tuzilmalaridagi aloqalarni uch turga ajratish mumkinligi aniqladik: qattiq bo'ysunish aloqalari (majburiy bo'ysunish), yumshoq bo'ysunish aloqalari (tavsiyaviy-ixtiyoriy bo'ysunish), o'zaro bo'ysunish (gorizontal) aloqalari. Aloqalarning nomlanishida bizlar menejment fanining rivojlanish modellarida keltirilgan tasnifdan foydalandik. Ushbu aloqalarning qo'llanishi bo'yicha yuqoridagi tashkiliy tuzilmalarning turlari quyidagi tartibda joylashadi (1-jadval)

1-jadval

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarining aloqalar turlari bo'yicha tavsiflanishi*

Aloqalar turi	Tuzilmalarda aloqalarning o'zaro nisbati, foizda*			
	Mexanistik	Adaptiv	To'rsimon	Virtual
Qattiq bo'ysunish	50-60	30-35	30-25	10-15
Yumshoq bo'ysunish	30-25	40-30	30-25	20-15
O'zaro bo'ysunish	10-15	20-25	40-50	60-70

*-intervyu - so'rov natijalariga asosan tuzilgan.

**-tashkilotlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nisbati aniq ma'lum doirada o'zgarib turadi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, to'rsimon va virtual tashkiliy tuzilmalarda gorizontal aloqalar ustuvor o'rinni egallaydi, ya'ni an'anaviy funktsional taqsimotdan tubdan farq qiladi.

XX-asr menejmenti nazariyasi va amaliyotida qattiq byurokratik va yumshoq byurokratik modellarga qarashli tashkiliy tuzilmalar keng qo'llanilgan bo'lib, har bir tuzilmaning mazmuni, qo'llash doirasi, ijobiy tomonlari va kamchiliklari batafsil o'rganilganligi munosabati bilan bizlar tadqiqotimizda ularning uchinchi turi – virtual qayishqoq modeliga e'tiborimizni qaratdik.

Buning asosiy sababi shundaki, jahonda, shu jumladan O'zbekistonda ham qurilish sohasidagi tashqi muhit shunchalik darajada rivojlandiki, byurokratik tashkiliy tuzilmalar boshqaruv tizimlari taraqqiyoti uchun to'sqinlik qiluvchi omillardan biriga aylandi. Tuzilmalarda vertikal aloqalarga tayanish natijasida mexnat jamoalarining shakllanishi va ularning faoliyatini tartiblashtirish boshqaruv samaradorligini oshirish tamoyillariga javob bermaydigan xolatga keldi. Ilg'or qurilish kompaniyalari tajribasi va sohadagi

tendentsiyalar gorizontaal aloqalarga asoslangan tuzilmalarga ehtiyoj mavjudligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Virtual qayishqoq modeliga kelsak, tashkiliy tuzilmalarning o'ziga xos shakllarini quyidagicha tavsiflash mumkin. (2-jadval).

2-jadval

Qurilish sohasidagi virtual tashkiliy tuzilmalarning tavsifi*

Tuzilma turi	Tavsifi va qo'llash doirasi
virtual	Ishbilarmonlik hamkorlik doirasida o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan norasmiy tuzilma. Bugungi qurilish amaliyotida bunday tuzilmalar asosan bosh pudrat tashkiloti va yordamchi pudrat tashkilotlarining munosabatlarida keng qo'llaniladi
to'rsimon	Birgalikda ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatni hamda bir-birining malakalarini to'ldiradigan va kengaytiradigan o'zaro bog'liq firmalarni birlashtiradigan tuzilma. Mamlakatimizda oxirgi yillarda shakllangan qurilish guruhlariga to'rsimon tuzilmalarning bir turi bo'lib xizmat qiladi
biznes-to'rlar	Yagona texnologik platformada kompaniya-plaforma egasi, ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar va pudratchilarni qamrab oluvchi virtual tuzilma. Xorijiy tajribada mazkur tuzilma yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishda qo'llanilib, yagona raqamlashgan platforma orqali investitsiya jarayoni ishtirokchilarini birlashtiruvchi to'rni yaratadi
agile (eyjel)	Qisqa muddatli buyurtmalar va masalalarga yo'naltirilgan hamda buyurtmachi bilan doimiy aloqada bo'lgan mustaqil ko'p funktsiyalari jamoalarni tuzishga asoslangan moslashuvchan tuzilma. Qurilish tajribasida ushbu tuzilmaning nisbatan soddaligi va qurilish ishlab chiqarishiga moslashganligi uning zamonaviy loyiha boshqaruvida keng qo'llanishiga asos bo'ldi
"firuza"	Rahbarlarga lavozim va iyerarxik bo'ysunishdan voz kechish hamda vazifalar taqsimlanishiga erkin yonlashishga asoslangan o'z-o'zini boshqarish tuzilmalar. Xodimlar teng huquqli va shaxsiy motivlashtirish sharoitida ishlaydi. Ushbu istiqbolli tuzilma geografik, boshqaruv va iqtisodiy jihatdan tarqoq bo'lgan investtsion faoliyatni samarali boshqarish uchun mo'ljallangan gorizontaal munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi
adxokratik	Xodimlarning ijodiy salohiyatini ochish, yangi g'oyalarni rag'batlantirish, erkin va harakatchan tashkiliy tuzilma. Bugungi kunda qurilish kompaniyalari negizida shakllanayotgan venchur innovatsion firmalarning faoliyati ushbu tuzilmaga misol bo'lishi mumkin
xolokratik	Mavjud tuzilma va vakolatlar tizimidan voz kechish va virtual guruhlariga cheklangan tanlama vakolatlarni ixtiyoriy uzatishga asoslangan yangi turdagi tuzilma sifatida taklif qilinmoqda va

	jahon qurilishi sohasiga IT kompaniyalar tajribasidan kirib kelmoqda
fragmentlashgan	Mavjud virtual tashkiliy tuzilma tarkibida alohida muammolar va masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan mustaqil ijodiy guruhlar (maslahat markazi) shakllangan bo'lib innovatsion g'oyalar va qarorlar aynan shu guruhlarda paydo bo'ladi. Mazkur tuzilma ma'lum sohada (yo'nalishda) ixtisoslashgan kompaniyalar va guruhlar birlashmasida yuqori samara berishi bashorat qilinmoqda

*T.B.Terentyeva tadqiqoti asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan tadqiqotimiz natijasida umumiy xulosa shundan iboratki, bugungi kunda milliy qurilish sanoatida virtual tashkiliy tuzilmalarning qo'llanishi juda kam uchraydi va uslubiy yondashuv sifatida yetarlicha huquqiy va tashkiliy-uslubiy asosga ega emas. Yirik milliy qurilish kompaniyalar qo'llayotgan zamonaviy tashkiliy tuzilmalarni qoidadan istisno sifatida qabul qilish mumkin. Ayniqsa, kichik qurilish tadbirkorlik firmalarida boshqaruv tuzilmalarini rivojlantirish holati qattiq byurokratik modeldan yumshoq byurokratik modelga o'tish bosqichida ekanligiga guvoh bo'lganmiz. O'tkazilgan so'rov natijalari bugungi rahbarlar chiziqli va funktsional tashkiliy tuzilmalarni qo'llashga moyillikni ko'rsatmoqdalar. Shu bilan birga rahbarlar mavjud tuzilmalar tashkilotning strategik maqsadlariga javob bermasligini ham ta'kidlab o'tmoqdalar. Bizning fikrimizcha, bunga boshqaruv vazifalari va vakolatlarini taqsimlashda shtat jadvaliga asoslangan funktsional yondashuv bo'lib, u yumshoq modelga o'tishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omil bo'lmoqda.

Xulosa

Qurilish sohasida tashkiliy tuzilmalarning zamonaviy turlarini joriy qilish va ommalashtirishda adaptiv va virtual tuzilmalarga xos tamoyillarni turli darajadagi rahbarlarga singdirish va ilmiy-uslubiy mexanizmlarini tadbiq qilish lozim, shu jumladan boshqaruvda markazlashtirishni keskin kamaytirish, lavozimlarni vazifalaraga mos ravishda o'zgaruvchan tartibiga o'tish, vertikal bo'ysunishdan gorizontaal hamkorlikka o'tish va xokazolar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Meskon. Osnovi menedjmenta: perevod s angliyskogo: klassicheskoye izdaniye / Maykl X. Meskon, Maykl Al'bert, Franklin Xedouri. - Moskva: Dialektika, 2020. - 665 s.
2. Ivanova I.I. Menedjment: Ucheb. posobiye. – 3Ae izd. –M.: RIOR: INFRA-A, M, 2011. – 128 s.
3. Vesnin V.V. Основы менеджмента: учебник. – М.: ТК ВЕЛБИ, Издательство Проспект, 2007. – 312 s.
4. Trilitskaya O.Yu. Formirovaniye i razvitiye adaptivnykh organizatsionnykh struktur upravleniya predpriyatiyem. Avtoreferat diss...k.e.n. Volgograd, 2003. – 28s.
5. V.V.Rodionov, S.V.Petuxova. Vertikal'naya iyerarxiya i gorizontальные структуры управления. vertikalnaya-ierarhiya-i-gorizontálne-struktury-upravleniya.pdf

6. Kugeleva A.S. Evolyutsiya organizatsionnykh struktur upravleniya. Innovatsii i investitsii, №9, 2007. s.72-75
7. M.A. Ignatov, G.N. Kalinina. Sistemnye podxody i setevaya paradigma: vertikal' vs gorizontaly. Nauchnye vedomosti: Filosofiya. Sotsiologiya. Pravo. tom 43. №4, 2018. – s.606-616
8. Terent'eva T. B. Organizatsionnaya struktura 4.0: vyzovy i perspektivy // Ekonomika i upravleniye. 2023. T. 29. № 6. S. 730–742. <http://doi.org/10.35854/1998-1627-2023-6-730-742>

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

